

10-SINF O'QUVCHILARIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Kenjayeva Muxlisa Toxir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi

muxlisatoxirovna21@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. 10-sinf o'quvchilari tadqiqot obyekti sifatida tanlanib, o'qib tushunish bilan bog'liq muammolar aniqlandi va ularni bartaraf etishga doir tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: o'qib tushunish, ko'nikma, o'quv topshiriqlari, matn turlari, yo'riqnoma matni.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие навыков понимания прочитанного у учащихся. В качестве объекта исследования были выбраны учащиеся 10-х классов, выявлены проблемы, связанные с пониманием прочитанного, и даны рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: понимание прочитанного, навыки, учебные задачи, типы текстов, учебный текст.

Abstract: This article discusses the development of reading comprehension skills in students. 10th grade students were selected as the object of research, problems related to reading comprehension were identified and recommendations were made to eliminate them.

Keywords: reading comprehension, skills, learning tasks, text types, instructional text.

Tilga oid egallanishi ko'zda tutilgan to'rt lisoniy malakaning biri – o'qib tushunish malakasini shakllantirishda yaxlit matn bilan ishlashga oid topshiriqlar muhim ahamiyatga

ega. Bugungi kunda “Ona tili” hamda “O‘zbek tili” darsliklarida berilayotgan mashq va topshiriqlarning aksariyati shaklan bir xil bo‘lib, tahlilga, o‘ylashga, izlanishga emas, ma’lum qoidalar asosida til hodisalarini mexanik tarzda aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilarni “tahliliy faoliyatga undash uchun esa aqliy mehnatni talab etadigan mashqlar zarur” [1; 222-b.] Mashqlar bilan birga tahliliy faoliyatga undovchi topshiriqlar ustida ishlash ham juda muhim hisoblanadi.

O‘qib tushunish — bu matnning mazmunini anglashga doir nutqiy faoliyat turi. So‘z ma’nosini bilish va matnning ma’nosini tushunish o‘qib tushunishning muhim elementlari hisoblanadi. “O‘qib tushunish — matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga muvofiq qabul qilish va qayta ishlab, mazmunan anglashga doir ko‘nikma. O‘qish obyekti sifatida faqat yozma matn tushunilmaydi. Rasmlar, chizmalar, grafikarlarda (aks etgan) axborotlarni tushunish, shuningdek, ovozlashtirilmagan videomateriallarni ko‘rib, ularda berilgan axborotlarni tushunish ham o‘qib tushunish jarayoniga kiradi.” [2;37-b.]

K.Mavlonova matnni o‘qib tushunish malakasini egallashga qaratilgan quyidagi metodik tavsiyalarni beradi:[3;150-b]

1. O‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalarini inobatga olgan holda matn tanlash (O‘zbekistondagi gazeta, jurnal va boshqa manbalardan matnlar tanlanadi. Tarjima qilingan matnlar tanlanmaydi. Matndagi so‘zlar sonini o‘quv yili davomida bir xil hajmda belgilab olish lozim).

2. Matnning xususiyatidan kelib chiqqan holda topshiriq shaklini aniqlash.

3. Topshiriqlarni ishlab chiqish.

4. Mustahkamlash darslarining 20 daqiqasini o‘qib tushunish mashqiga ajratish.

5. Matnni o‘qib tushunishga qaratilgan sinovni o‘tkazish.

6. Javoblarni taxminan belgilamaslik hamda bir-biridan ko‘chirmaslikka e’tibor qaratish (Bunday yondashuv vaziyatni real baholashda juda muhim).

7. Natijalarni tahlil qilish hamda umumiy xulosalar chiqarish.

8. O‘tkazilgan sinovlar monitoringini olib borish.

Bugungi kunda o'qib tushunish uchun nafaqat odatiy matnlardan balki yo'riqnoma, infografika, logotiplar, intervyu matnlaridan ham unumli foydalanish mumkin. Yo'riqnoma matni tanlangan holda o'quvchilarida o'qib tushunish bilan bog'liq muammolarni aniqlash borasida tadqiqot o'tkazildi. Quyida tadqiqot materiallari aks etgan:

YO'RIQNOMA MATNI

1-noyabrdan "Toshshahartransxizmat" 2019-yildan buyon ilk bora Toshkent shahridagi jamoat transportida yo'lkira haqini oshirmoqda. Endi safar uchun naqd pul orqali 2000 so'm, ilova orqali yoki ATTO kartasi bilan to'lashda esa 1700 so'm to'lash kerak bo'ladi. Shu kuni chegirmalar va bir soat ichida transferlar uchun bepul safarni nazarda tutuvchi ancha murakkab transfer tariflari joriy etildi. Biz ushbu "chalkashlikni" o'rganib chiqib, nafaqat pulingiz, balki vaqtingizni ham tejashga yordam beradigan uch xil usulini taklif qilmoqchimiz.

"Uzum Bank" orqali yo'kira haqini to'lash uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- ilovani yuklab oling va unda ro'yxatdan o'ting;
- ilovaning asosiy ekranida "Uzum Pay" punktini tanlang;
- birinchi to'lovni amalga oshirganda ilovaga telefon kamerasiga kirishga ruxsat bering;
- avtobuslarda to'lash uchun telefon kamerangizni eshik yonidagi tutqichga o'rnatilgan validatoridagi kichik QR kodga yo'naltiring;
- metroda to'lovni amalga oshirish uchun o'ng burchakdagi "Metroda to'lov" bandini va kerakli bekatni tanlang, so'ngra turniketdagi skanerga paydo bo'lgan shtrix-kodni biriktiring.
- "Uzum bank" orqali yo'l haqini to'lashning afzalligi shundaki, har bir safardan 20% keshbek qaytariladi — 1700 so'mlik to'lovdan 340 so'm qaytariladi, ya'ni bir safarning haqiqiy qiymati 1360 so'mni tashkil etadi. Olingan keshbekni bank kartasiga o'tkazish va istalgancha sarflash mumkin.

"Uzum bank"da QR-kod orqali yo'lkira haqini to'lashning kamchiliklari:

- telefon quvvati noqulay vaqtda tugab qolishi mumkin;
- internetga ulanish beqaror bo‘lishi mumkin;
- arzonroq telefon kameralari kichik o‘lchamlari tufayli QR kodni to‘liq ko‘ra olmasligi;

— QR-kod orqali to‘lov karta orqali to‘lovdan ko‘ra ko‘proq vaqt oladi.

“Humans” kartasi bilan yo‘lkira haqini to‘lash uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

— kompaniya saytida, ilovasida yoki savdo nuqtalarida kartaga buyurtma berish va uni faollashtirishingiz;

— “Humans” yagona hisob raqamini to‘ldirishingiz;

— avtobus yoki metroda kartangizni validatorga bir soniya bosib turing.

“Humans” kartasi bilan yo‘lkira uchun to‘lovning afzalliklari:

— jismoniy kartaning mavjudligi tufayli safar uchun to‘lov bir soniya davom etadi;

— har bir sayohatdan 35% keshbek qaytariladi — 1700 so‘m uchun 425 so‘m qaytariladi.

— minus tarafi shundaki, taqdim etilgan keshbek faqat “Humans” ilovasi orqali aloqa uchun to‘lash maqsadida ishlatish mumkin, boshqa xaridlarga sarflab bo‘lmaydi.

“ATTO” orqali jamoat transporti yo‘l haqqi uchun to‘lashning ikki xil usuli bor :

— smartfondagi ilova orqali va karta orqali.

“ATTO” ilovasi orqali to‘lov qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

— ilovani yuklab olish va undan ro‘yxatdan o‘ting;

— ilovaning asosiy menyusidagi “QR to‘lov” bo‘limini tanling;

— birinchi to‘lov paytida ilova telefon kamerasiga kirishga ruxsat bering;

— telefon kamerasini avtobusga chiqishdagi tutqichlarga o‘rnatilgan validatorlardagi kichik QR kodga yo‘naltiring;


Shuningdek, Android tizimi foydalanuvchilari “ATTO” ilovasida NFC tizimi orqali ham to‘lov qilishlari mumkin.

“ATTO” kartalari orqali to‘lov qilish uchun:

- kompaniya sotuv nuqtalaridan karta sotib oling;
- balansni to‘ldiring;
- avtobus va yoki metrodagi validatorlarga soniyaga kartani tekkizish kerak bo‘ladi.

“ATTO” kartalari orqali yo‘l haqini to‘lashning asosiy afzalligi shundaki, bir soat ichida almashishlar uchun chegirmalar taqdim etiladi. “ATTO” kartasi orqali to‘lov amalga oshirishning kamchiliklari yo‘q, ilova orqali to‘lovda esa “Uzum Bank” uchun sanalganlarni qo‘shsa bo‘ladi.

1-topshiriq.Moslashtirish.



1.Pulni bir hisobdan boshqasiga o‘tkazish.

2.Belgilangan nuqta.

3.Yo‘lovchi chiptasini yoki transport kartasini tekshiruvchi va belgilovchi elektron qurilmadir.

4.Kvadrat shaklidagi matritalsali shtrix-kod .

5.Odamlarning kirib-chiqishini nazorat qilish uchun o‘rnatiladigan mexanik yoki elektron qurilmadir.

6.Tasvir, matn yoki obyektini raqamli shaklga o‘tkazadigan qurilma.

7.Qaytim,qaytqi.

8.Fayllarni masofadan o‘qish imkonini beruvchi tizim.

2-topshiriq.Jadvalni to‘ldirish.

	Uzum bank	Humans	ATTO kartasi	ATTO ilovasi
Afzalliklari				
Kamchiliklari				
Keshbek miqdori				
Keshbekdan foydalanish				

3-topshiriq.

Vaziyat:

Kamola ismli talaba har kuni universitetga avtobus va metro orqali qatnaydi. Uning mobil telefoni eski model va kamerasing sifati past. Internet esa faqat universitet hududida yaxshi ishlaydi. U pulini tejamoqchi va keshbek tizimidan ham foydalanishni xohlaydi.

Sizning vazifangiz:

Kamolaga eng maqbul yo‘lkira to‘lovi usulini tanlashda yordam bering.

Kamolaning mobil telefoni va internet holatidan kelib chiqib, qaysi to‘lov tizimlari mos kelmaydi? Nima uchun? Qaysi tizimda keshbek eng yuqori? Bu tizimda keshbekni qanday ishlatish mumkin? Siz Kamolaga qanday tavsiya berasiz? Sabablarini asoslang (kamida 3 sabab keltiring).

Tajriba quyidagicha tashkil qilindi:

Hudud:Toshkent shahri,281-maktab

Ishtirokchilar soni:20 nafar

Sinf:10-V

Tajriba maqsadi:O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish

Mazkur topshiriqlar asosida o'quvchilarda mavjud muammolar aniqlandi va natijalar jadval shaklida aks ettirildi:

1-topshiriq	85%(17 ta o'quvchi)
2-topshiriq	75% (15 ta o'quvchi)
3-topshiriq	60 % (12 ta o'quvchi)

Natijalarga ko'ra o'quvchilar moslashtirish topshirig'ini nisbatan ko'proq bajarishgan,bunga sabab ma'lumotlar ochiq ifodalanganligi va sodda tuzilganligi. 2-topshiriqda ham yaxshi natija qayd etilgan.Bunga sabab matnda ifodalangan ma'lumotlardan foydalanilgan.3-topshiriqda esa o'quvchilar nisbatan kamroq natija qayd etishgan.Buning asosiy sababi esa o'quvchilar faqat matnda ifodalangan ma'lumotlar bilan emas, o'zlari fikrlagan holda javob berishlarini talab qiluvchi topshiriq ekanligi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchilardagi o'qib tushunish bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud va ularni bartaraf etish uchun faqat nazariy bilimlar kamlik qiladi.Buning sabablaridan biri biz shu kungacha faqat grammatik yondashuvga tayanib darsliklar ishlashimiz va shu asosda darsni tashkil qilishimizdir.Hozirgi kunda yangilanayotgan darsliklar ushbu muammoga yechim bo'lmoqda.O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishda odatiy matnlardan emas,balki bugungi kunda ko'p uchrayotgan yo'riqnoma, infografika, reklama, intervyu kabi matn turlaridan foydalanilsa,yanada samaraliroq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Azimova I.Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi.Global ta'lim va milliy metodika.Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. —Toshkent,2019. —B.215-224.

2.Asilova G. ,Fatma Acik.Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari.Uslubiy qo'llanma. —Toshkent,2024. —37 b.

3.Mavlonova K.O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish.Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti .Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. —Toshkent,2020. —B.149-155.